

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 110 (899), 2023-yil 6-iyun, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## DAVLAT RAHBARLARI SAMARQAND SHAHRINING ULUG‘VOR ME‘MORIY OBIDALARINI KO‘ZDAN KECHIRDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy 5-iyun kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Samarqand xalqaro aeroportida Qatar Amirini O‘zbekiston Prezidenti kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Davlat rahbarlari shohsupaga ko‘tarildilar.

Qatar Amiriga xalqimizga xos yuksak mehmondo‘stlik ko‘rsatildi. Boy milliy madaniyat va san‘atimiz namunalarini namoyish etildi. Kuy-qo‘shiqlar ijro etildi.

Shundan so‘ng Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida qadim va betakror Samarqand shahrining ulug‘vor me‘moriy obidalarini ko‘zdan kechirdilar.

Davlat rahbarlari dastlab Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi va muzeyini borib ko‘rdi. Ma‘lumki, Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek buyuk olim va hukmdor sifatida ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan. O‘rta asrlardayoq noyob rasadxona kashf qilib, osmon jismlarini juda aniq o‘rgangan. Uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari butun dunyoda, xususan, arab olamida falakiyot bo‘yicha ilmiy manba sifatida mashhur bo‘lgan.

Tanishuv chog‘ida temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik

yuksak darajada rivojlangani, bu yurtimizdagi Ikkinchi Renessansga asos bo‘lgani yodga olindi. Bugun yurtimizda islom sivilizatsiyasi, allomalar merosini o‘rganish bo‘yicha markazlar tashkil etilgani ta‘kidlandi.

Keyingi manzil “Afrosiyob” muzeyi bo‘ldi. Bu yerdagi eksponat va devoriy suratlar Samarqand shahrining uch ming yillik tarixidan hikoya qiladi. Shunday suratlardan birida Afrosiyob hukmdorining elchilarni qabul qilish marosimi aks etgan. Bu ajdodlarimiz diplomatiyaga katta e‘tibor bergani, Sharq o‘lkalari bilan azaldan hamkorlik yaxshi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Dunyoga mashhur Registon maydoni — mamlakatimizning yana bir “tashrif qog‘ozi”, ajdodlarimiz bunyodkorlik salohiyatining go‘zal ifodasi. Mirzo Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalarining mahobati, o‘ziga xos arxitekturasi hamma hayrat va havas uyg‘otadi.

Oliy martabali mehmonga madrasalarning qurilish tarixi, naqsh va ramzlarning mazmuni, maydonda amalga oshirilgan ta‘mirlash ishlari haqida so‘zlab berildi. Qatar Amiri madrasalarni katta qiziqish bilan tomosha qildi.

So‘ng davlat rahbarlari Samarqandning Xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” majmuasiga tashrif buyurdilar.

O‘zbekiston va Qatar o‘rtasida diplomatik munosabatlarni o‘rnatilganiga 25 yildan ziyod vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ushbu mamlakat rahbari ilk bor yurtimizga davlat tashrifini amalga oshirmoqda. Bu keyingi yillarda davlatlarimiz o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani natijasidir. Jumladan, yaqinda Toshkent shahrida Qatar davlatining elchixonasi ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 5-iyun kuni qabul qilingan farmoni bilan Qatar fuqarolari uchun vizasiz tizim joriy etildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 6-iyun kuni rejalashtirilgan.

Tashrif davomida O‘zbekiston va Qatar o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Bunda, eng avvalo, faol siyosiy muloqotlar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish, energetika, gaz-kimyanoat, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish e‘tibor markazida bo‘ladi.

Davlat rahbarlari xalqaro siyosat va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalarini ham muhokama qiladilar.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
G‘olib HASANOV,  
O‘ZA muxbirlari

### BIZ VA DUNYO

## O‘ZBEKISTON VA QATAR KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNING YANGI SAHIFASINI OCHMOQDA



Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 5-iyun kuni Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi.

Bu Qatar rahbarining O‘zbekistonga ilk tashrifi, shu bois, ushbu sammit haqli ravishda O‘zbekiston — Qatar munosabatlarida tarixiy bosqichga aylanadi va albatta, ularning yanada rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Davomi 2-betda

### INSON QADRI UCHUN

## YANGI O‘ZBEKISTONNING HECH BIR FUQAROSI O‘Z MUAMMOSI BILAN YOLG‘IZ QOLMAYDI

Yangi O‘zbekiston so‘nggi olti yilda demokratik islohotlarni izchil davom ettirayotgan davlat sifatida jahon miqosida ijobiy o‘rni va imijiga ega bo‘lib bormoqda. Joriy yilning 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan muhim siyosiy jarayon — yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi yuzasidan o‘tkazilgan umumxalq referendumida xalqimiz “Yangi O‘zbekiston orzusi” uchun ovoz berdi.

Davomi 3-betda



### TAASSUROT

## KUCHLI TA‘LIM TIZIMI

Finlyandiya tajribasida qanday namoyon bo‘lmoqda?

O‘qitish tizimining haqiqatda uzluksiz ishlashini ta‘minlashda qanday omillar muhim? O‘qituvchilar va ta‘lim oluvchilar o‘rtasida yuqori darajadagi hamkorlikni qanday o‘rnatish bo‘ladi? Qanday qilib pedagoglar mahoratini jamiyat va xalq ishonadigan yuqori darajaga olib chiqish mumkin?

Davomi 5-betda



2023 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

PREZIDENTLIKKA NOMZDLARNING SAYLOVOLDI TASHVIQOTI 7-IYUNDAN BOSHLANADI

5-iyun kuni Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda MSK a‘zolari, siyosiy partiyalar vakillari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi okrug saylov komissiyalari a‘zolari ishtirok etdi.

Majlis kun tartibidan siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro‘yxatga olish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning

saylovoldi tashviqoti va ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risidagi masalalar o‘rin oldi.

Davomi 2-betda



Qatar elchisi Hasan Hamza Hoshim:

O'ZBEKISTON MUHIM VA YAQIN HAMKORIMIZ

Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning O'zbekistonga davlat tashrifi arafasida "Dunyo" AA muxbiri ushbu mamlakatning yurtimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Hasan Hamza Hoshim bilan suhbatlashdi. Elchi intervyu davomida O'zbekiston - Qatar munosabatlari rivoji va bo'lajak tashrifdan kutilayotgan asosiy maqsadlar haqida gapirdi.

— Joriy yil Toshkentda Qatarning diplomatik vakolatxonasi ochilgani bilan sizni tabriklashdan mamnunmiz. Aytinch, bunday qarorga nima sabab bo'ldi, mamlakatimizda O'zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari qanday munosabatda bo'lishmoqda?



— Qatarning O'zbekistondagi elchixonasi ochilishi mamlakatlarimiz rahbarlarining turli sohalardagi ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, ikki do'st xalqni yanada yaqinlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari samarasidir.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar 1997-yilning noyabr oyida Qatar Davlati va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida elchilar darajasida diplomatik munosabatlarni o'rnatish to'g'risidagi bayonnomani imzolash orqali o'rnatilgan.

O'sha kundan boshlab ikki hukumat munosabatlari umumiy asosi xalqaro huquq, inson huquqlari tamoyillari va BMT nizomiga mos kelishini ta'minlashga harakat qildi.

Elchixonasi ochilishi ikki va ko'p tomonlama, xalqaro munosabatlarni doirasidagi faoliyatni mustahkamlashga hissa qo'shish, hamkorlik va birodarlik ko'priklarini barpo etish jarayonini davom ettirish istagimiz ifodasidir. Shuningdek, ikki tomonlama munosabatlarni keyingi bosqichlarda yanada mustahkam bo'lishga umid qilamiz.

— Bugun O'zbekistonda kecha-yotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, xalqaro maydondagi ochiqlik va faollik respublikamizning xorijiy sheriklari, xususan, Qatar bilan xalqaro hamkorligini yanada rivojlantirish uchun qanday yangi imkoniyatlar ochmoqda?

— Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekistonda so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar, jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, konstitutsiyaviy islohotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, bunyodkorlik jarayonlari va mamlakatning xorijiy sarmoyalarga ochiqligi kabilar tashiga loyiqdir.

O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi pozitsiyasiga kelsak,

"Dunyo" AA

BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON VA QATAR KO'P QIRRALI HAMKORLIKNING YANGI SAHIFASINI OCHMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Qatar Davlati O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan olgan. O'zbekiston va Qatar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi qo'shma bayonnomasi 1997-yil 27-noyabrda imzolangan.

2010-yil 23-24-noyabr kunlari Qatarda bo'lib o'tgan oliy darajadagi rasmiy tashrif, shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy o'rtasida 2022-yil 5-fevralda Pekinda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari va 2022-yil 13-oktabrda Ostona shahrida bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengashning VI sammiti ochilish marosimi doirasidagi uchrashuv va muzokaralar siyosiy muloqotni yanada rivojlantirishga asos bo'ldi.

Bugungi kunga qadar ikki tomonlama hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasi 12 ta hujjatdan iborat.

Ikki davlat o'rtasidagi muloqot yuqori, ekspert va boshqa darajalarda, xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti doiralarda izchil rivojlanib bormoqda.

Eslatib o'tamiz, 2022-yil 14-15-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan SHHT sammiti doirasida Qatarning ushbu tashkilotga muloqot bo'yicha hamkor sifatida qo'shilishi to'g'risida bitim imzolangan edi.

Shu bilan birga, ikki davlat Tashqi ishlar vazirligining o'rtasida delegatsiyalar almashinuvi, siyosiy maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida aloqalar yo'lga qo'yilgan.

2021-yilning 9-10-iyun kunlari Qatar Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdurahmon Ol Soniy boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi, uni davlatimiz rahbari qabul qildi.

Qatar tashqi ishlar davlat vaziri Sulton Al-Muraixi boshchiligidagi ushbu mamlakat delegatsiyasi 2021-yil 15-16-iyul kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan — "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" xalqaro konferensiyasida ishtirok etdi.

O'zbekiston parlamenti delegatsiyalari muhim xalqaro tadbirlarda, jumladan, Parlamentlararo ittifoqning 140-sessiyasi, BMTning eng kam rivojlangan mamlakatlar bo'yicha 5-konferensiyasi (NRS-5) va boshqa yirik anjumanlarda ishtirok etish uchun bir necha bor Qatarga tashrif buyurdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ikki davlat xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birining konstruktiv tashabbuslari va nomzodlarini faol qo'llab-quvvatlab kelayotir. Jumladan, Qatar O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMTning qator rezolyutsiyalari, xususan, BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rif va diniy bag'rikenglik" (2018-yil dekabr), "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risida" (2022-yil iyul), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida" (2022-yil dekabr), shuningdek, YUNESKO Ijroiya kengashining "Toshkent deklaratsiyasini amalga oshirish bo'yicha keyingi tadbirlar va yosh bolalar tarbiyasi va ta'limini o'zgartirish choralarini ko'rish bo'yicha majburiyatlar to'g'risida" (2023-yil may) va boshqa rezolyutsiyalarga hammualliflik qildi.

Qatar O'zbekistonning Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlarini ham qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakatimiz, o'z navbatida, Qatarning Afg'oniston xalqiga favqulodda gumanitar yordam ko'rsatish borasidagi harakatlarini to'liq e'tirof etadi.

2018-yil mart oyida Qatar tashqi ishlar vazirining terrorizmga qarshi kurash va mojarolarga vositachilik qilish bo'yicha maxsus vakili Mullaq bin Majid al-Qahtaniy Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiyada qatnashdi.

2018-yil iyun, 2019-yil mart, 2020-yil fevral va 2021-yil aprel oylarida tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalalarini muhokama qilish uchun Qatarda bo'ldi. Tashriflar doirasida Qatar Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdurahmon Ol Soniy bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif

davomida O'zbekiston delegatsiyasi Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy tomonidan qabul qilindi.

Muloqotlar davomida qayd etilganidek, savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlik mamlakatlar uchun mavjud imkoniyatlarga mos kelmaydi. Jumladan, 2023-yilning birinchi choragi yakunlariga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1,8 million dollarni tashkil etdi. 2022-yilda bu ko'rsatkich qariyb 5 million dollarga teng bo'lgan.

Biroq mamlakatimiz Qatarni Yaqin Sharqdagi istiqbolli iqtisodiy hamkor deb biladi. O'zbekiston ham, Qatar ham bu borada hali foydalanilmagan ulkan salohiyatga ega va joriy munosabatlarni faollashtirish ikki davlatning bugungi kun tartibidan o'rin olgan.

Shu yilning may oyida poytaxtimizda o'tkazilgan Ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiyaviy forumida ishtirok etish uchun Qatarning bir qator vazirlik va yetakchi kompaniyalari rahbarlari O'zbekistonga keldi. Forum davomida investitsiya, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov va Qatar savdo va sanoat vazirining o'rinbosari Sulton al-Xotir o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar natijalari ham ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qiziqish juda yuqori ekanini tasdiqladi.

O'zbekiston — Qatar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni faollashtirish maqsadida tomonlar ikki davlatning tegishli idoralari rahbarlaridan iborat qo'shma ishchi guruh tuzishga kelishib oldilar. Hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari sarmoyaviy va bank-moliya sohalari, transport va logistika, savdo, energetika, shuningdek, turizm, jumladan, ziyorat turizmidir.

Joriy yilning ikkinchi yarmida Doha shahrida Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning 1-majlisi, shuningdek, O'zbekiston — Qatar Ishbilarmonlar kengashining 1-yig'ilishi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Erishilgan kelishuvlardan kelib chiqib, savdo-iqtisodiy aloqalarining faollashishi madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb aytish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Shubhasiz, ikki davlatning tarixi, madaniyati va diniy

muhtarakligi, boy ma'naviy merosi madaniyatlararo muloqotni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Koronavirus pandemiyasi davrida Qatarning "Jasim va Hamad bin Jasim xayriya" jamg'armasi "Mehr-shafqat va salomatlik" jamg'armasiga 200 ming dollar, Qatar xayriya jamg'armasi esa Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qoraqalpog'iston filialiga 200 ming dollar ajratdi.

2021-yilning 1-martidan Qatar fuqarolariga O'zbekistonga kirish uchun 10 kunlik vizasiz rejim joriy etilishi, shuningdek, 2021-yil iyun oyida imzolangan mamlakatlarimiz o'rtasida Havo qatnovi to'g'risidagi hukumatlararo bitim sayyohlik sohasidagi hamkorlikni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. O'zbekistonda Qatardan yurtimizdagi tarixiy obidalarini ziyorat qilish istagida bo'lgan sayyohlarni qabul qilish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Sport sohasidagi hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. 2017-yilda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi va Qatar futbol assotsiatsiyasi o'rtasida Hamkorlik memorandumini imzolangan.

Madaniyat va san'at sohasida almashinuv yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, O'zbekiston "Hunarmand" uyushmasi va "KATARA" jamg'armasi o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2022-yil sentabr-oktabr oylarida Qatar poytaxtida O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi. Uning doirasida O'zbekiston Davlat simfonik orkestri konsertlari, xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi tashkil etildi. Shu bilan birga, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Qatar Milliy kutubxonasi o'rtasida Hamkorlik memorandumini imzolandi.

Yuqoridagilarni sarhisob qilar ekanimiz, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Samarqandda bo'lib o'tgan ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi birinchi O'zbekiston — Qatar oliy darajadagi sammiti hamkorlikning yangi bosqichini boshlash, uning ko'p qirrali va dinamik tusga kirishini ta'minlash, shuningdek, faol, konstruktiv va o'zaro manfaatli muloqot uchun muhim siyosiy qadam bo'ladi.

"Dunyo" AA

2023 9-IYUL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI



MAJLISDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZDLARNING SAYLOVOLDI TASHVIQOTINI O'TKAZISH MASALASI MUHOKAMA ETILDI VA TEGISHLI QAROR QABUL QILINDI. QAROR BILAN PREZIDENTLIKKA NOMZDLARNING SAYLOVOLDI TASHVIQOTI 2023-YIL 7-IYUNDAN BOSHLANISHI QAYD ETILDI. O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPAANIYASINING RESPUBLIKA VA HUDUDIY TELERADIOKANALLARIDA BEPUL AJRATILADIGAN EFIR HAJMI VA VAQTI, "YANGI O'ZBEKISTON", "IPABDA BOCTOKA", "XALQ SO'ZI", "HAPODHOE CLOBO" KABI RESPUBLIKA GAZETALARIDA HAMDA YIGIRMA TO'RT NOMDAGI MAHALLIY GAZETALARDA BEPUL AJRATILADIGAN NASHR MAYDONI TASDIQLANDI.

PREZIDENTLIKKA NOMZDLARNING SAYLOVOLDI TASHVIQOTI 7-IYUNDAN BOSHLANADI

Boshlanishi 1-betda

Ta'kidlash joizki, joriy yil 31-may kuni Markaziy saylov komissiyasiga O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi hamda Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi, 1-iyun kuni O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodlarni ro'yxatga olishni so'rab murojaat qildi va nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi imzo varaqalarini taqdim etdi.

Markaziy saylov komissiyasining ekspert guruhlari joriy yil 31-may — 2-iyun kunlari yuqorida qayd etilgan to'rtta siyosiy partiya tomonidan taqdim etilgan nomzodlarni qo'llab-quvvatlovchi imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganini saylov qonunchiligi talablariga qat'iy amal qilgan holda tekshirdi. Tekshirish natijalariga ko'ra, to'rtta siyosiy partiya tomonidan to'plangan imzo varaqalari O'zbekiston

MAJLISDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VAKILLARINI AKKREDITATSIYADAN O'TKAZISH TO'G'RSIDAGI MASALA HAM KO'RIB CHIQILDI. MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIGA KELIB TUSHGAN MUROJAATLAR ASOSIDA 9 TA MAHALLIY OMMAVIY AXBOROT VOSITASINING 39 VAKILI AKKREDITATSIYADAN O'TKAZILDI.



muvofiq, majlisda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Ilyosovich Inoyatovni, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan

Robaxon Anvarovna Maxmudovani hamda O'zbekiston Ekologik partiyasidan Abdushukur Xudoyqulovchil Xamzayevni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Shuningdek, majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqotini o'tkazish masalasi muhokama etildi va tegishli qaror qabul qilindi. Qaror bilan Prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti 2023-yil 7-iyundan boshlanishi qayd etildi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining respublika va hududiy teleradiokanallarida bepul ajratiladigan efir hajmi va vaqti, "Yangi O'zbekiston", "Pravda Vostoka", "Xalq so'zi", "Hapodnoe slovo" kabi respublika gazetalarda hamda yigirma to'rt nomdagi mahalliy gazetalarda bepul ajratiladigan nashr maydoni tasdiqlandi.

Ommaviy axborot vositalari saylovoldi tashviqoti davrida bepul ajratiladigan efir vaqti va nashr maydoni doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqoti

davrida chiqishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Yangiliklar dasturlarida va boshqa axborot materiallarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tadbirlarini yoritishda tenglik prinsipiga rioya etishi lozim.

Majlisda ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi. Markaziy saylov komissiyasiga kelib tushgan murojaatlar asosida 9 ta mahalliy ommaviy axborot vositasining 39 vakili akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Shu kuni Markaziy saylov komissiyasining matbuot markazida MSKning ushbu majlisi kun tartibidan o'rin olgan masalalar bo'yicha matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda Prezident saylovi kompaniyasi, Prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqoti yuzasidan jurnalistlarni qiziqitirgan savollarga Markaziy saylov komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan javob qaytarildi.

Bahor XIDIROVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



## INSON QADRI UCHUN

YANGI O'ZBEKISTONNING  
HECH BIR FUQAROSI

## O'Z MUAMMOSI BILAN YOLG'IZ QOLMAYDI

Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, demakdir. Bu esa ta'lim va tibbiyot sifati, ilm-fan va madaniyat rivoji, yoshlar hayotida aks etadi.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



**Akbarshoh TESHABOYEV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi huzuridagi  
Yoshlar parlamenti raisi  
o'rinbosari, huquqshunos-  
tahlilchi, yuridik fanlar  
bo'yicha falsafa doktori

## Boshlanishi 1-betda

Yangi tahrirdagi Bosh qonunimizning muallifi tom ma'noda xalqimizning o'zi bo'ldi, deb aytishga barcha asoslar yetarli. Ikki marotaba xalqimiz va keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan konstitutsiyaviy qonun loyihasiga fuqarolar tomonidan bildirilgan 220 mingdan ziyod taklifning har to'rttadan bittasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgani fikrimiz isbotidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili mustahkamlandi. Shu o'rinda ijtimoiy davlat o'zi nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. Ijtimoiy davlat tushunchasi yuzasidan nazariy adabiyotlarda turli fikr va qarashlar bildirilgan. Bu tushunchani ilk bor 1850-yilda nemis faylasufi, huquqshunos, iqtisodchi Loren fon Shtayn qo'llagan. U davlatning funksiyalari qatoriga "davlatning o'z hokimiyati orqali fuqarolarning huquqlarda mutlaq tengligini ta'minlash" vazifasini kiritgan. Unga ko'ra, davlat o'z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'maklashishga majburdir, chunki yakuniy tahlilda birining rivoji ikkinchisining rivojlanishi uchun shartdir.

O'zbekistondagi so'nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohot va jarayonlar mohiyatidan kelib chiqqan holda aytish joizki, "ijtimoiy davlat — har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatlari ta'lim, kafolatlari tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatlari ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyga ega bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatlari davlat"dir.

Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**birinchi maqsad:** davlat har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqishi;

**ikkinchi maqsad:** davlat aholining turmush sharoiti va sifati jihatidan taqabalanishiga, ya'ni ular o'rtasida

yashash uchun talab etiladigan sarf-xarajalar bo'yicha farqlar kattalashib ketishiga yo'l qo'ymasligi;

**uchinchi maqsad:** aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish amaliyotining muntazam yo'lga qo'yilishidir.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy davlatning 15 ta belgisidan quyidagi asosiy 5 tasiga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:

**birinchi asosiy belgi:** ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti mavjudligi;

**ikkinchi asosiy belgi:** kuchli va ta'sirchan fuqarolik jamiyati shakllangan; uchinchi asosiy belgi: davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilgani va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi;

**to'rtinchi asosiy belgi:** davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyati mavjudligi;

**beshinchi asosiy belgi:** fuqarolar kundalik turmush sharoitini yuritish uchun boshlang'ich moddiy imkoniyatlarga ega ekani.

Ijtimoiy davlat modeliga ega bo'lgan mamlakatlarning so'nggi besh yildagi faoliyatini tahlil qilish natijalariga ko'ra, ijtimoiy davlatning asosiy 10 ta funksiyasidan birlamchi ahamiyat kasb etuvchi quyidagi 4 tasi o'ta muhim:

**birinchi muhim funksiya:** korrupsiya va kambag'allikka qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor funksiyasi etib belgilanishi;

**ikkinchi muhim funksiya:** davlat ko'magida aholi bandligini ta'minlash orqali uning daromadlari o'sishiga erishish;

**uchinchi muhim funksiya:** barcha qatlam vakillarining ijtimoiy sug'urta tizimi bilan qamrab olinishi;

**to'rtinchi muhim funksiya:** aholi qatlamlari o'rtasida iqtisodiy tengsizlik kamaytirilib, imtiyozlar paketi taqdim etilishi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida belgilanishi uchun quyidagi hayotiy zaruriyatlar mavjud bo'lganini aytish joiz:

**birinchi hayotiy zaruriyat:** O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida belgilanishi xalqimiz xohish-irodasining natijasidir. Konstitutsiyaviy islohotlar davrida xalqimiz tomonidan bildirilgan takliflarning aksariyatida ijtimoiy huquqlarni ta'minlash masalasi ifoda etilgan;

**ikkinchi hayotiy zaruriyat:** kambag'allikka qarshi kurashish borasidagi davlat majburiyatlarini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy darajada mustahkamlanishi;

**uchinchi hayotiy zaruriyat:** inson qadri yuksaltirishdek ulug' maqsadga erishish borasidagi mas'uliyat ham Bosh qonunimizda O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida belgilanishini taqozo etdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish masalasi aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish borasida quyidagi ijobiy jihatlarga e'tibor qaratish o'rinli:



**IJTIMOY DAVLAT IJTIMOY TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISH, SAMARALI IJTIMOY SIYOSAT YURITISHGA ASOSLANGAN DAVLAT MODELIDIR. IJTIMOY TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISH VA SAMARALI IJTIMOY SIYOSATNING TAG ZAMIRIDA INSON QADRI TUSHUNCHASI YOTADI. BU ESA, O'Z NAVBATIDA, INSON QADRI VA IJTIMOY DAVLAT TUSHUNCHALARI O'ZARO UZVIY BOG'LIQ EKANINI ANGLATADI.**

**birinchi ijobiy jihat:** ehtiyojmand oilalarni manzilli qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning mantiqiy davomiylikni ta'minlash zarurati.

Mamlakatimizda ehtiyojmand oilalarga yordam ko'rsatish maqsadida "Temir

rag'batlantirish subsidiyalari ajratish tartibi belgilandi.

**uchinchi ijobiy jihat:** pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste'mol xarajalaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqish bo'yicha aniq



daftar", "Yoshlar daftar" va "Ayollar daftar" joriy etilib, ularga kiritilgan fuqarolarni kasb-hunarga o'rgatish, bandligini ta'minlashda manzilli yondashuv joriy etildi va bu boradagi ishlar muntazam takomillashtirib borilmoqda;

**ikkinchi ijobiy jihat:** kambag'allikka qarshi kurashish borasidagi ishlarning huquqiy asosini mustahkamlash ijtimoiy davlatni qurishning muhim mezon sifatida belgilandi. Xususan, 2019-2022-yillarda kambag'allikka qarshi kurashishning institutsional, tashkiliy va huquqiy asoslarini bevosita belgilab beruvchi 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Ayniqsa, bu borada Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra, ilk bor nodavlat kasb-hunarga o'qitish muassasalarida ta'lim olgan hamda WorldSkills va boshqa xalqaro standartlar darajasida kasbiy malaka sertifikatini (Skills pasporti) olgan bitiruvchilarni tadbirkorlikka jalb etish va o'zini o'zi band qilganlik uchun

mexanizmlar joriy etildi. Natijada 2022-yilda tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajalaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqildi. Aytish joizki, 2022-yil dekabr oyi holatiga ko'ra, 2 milliondan ortiq oilaga ijtimoiy ko'mak berildi.

Sodda qilib aytganda, ijtimoiy davlat ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, samarali ijtimoiy siyosat yuritishga asoslangan davlat modelidir. Ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va samarali ijtimoiy siyosatning tag zamirida inson qadri tushunchasi yotadi. Bu esa, o'z navbatida, inson qadri va ijtimoiy davlat tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq ekanini anglatadi.

Shundan kelib chiqqan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlar bilan bog'liq normalar 3 barobar ko'paydi. Bosh qonunimizda pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajalaridan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilandi. Bu, o'z navbatida, 2 million 200 ming ehtiyojmand oila davlatdan kafolatlari moddiy yordam olishini anglatadi. Mazkur raqam davlat byudjetidan har yili qo'shimcha 30-40 trillion so'm ajratish, yuzlab ijtimoiy

obyekt — yangi bog'chalar, maktab va shifoxonalar qurish zarurligiga ishora beradi.

O'zbekistonning ijtimoiy davlat etib belgilanishi yurtimizdagi har bir fuqaroga quyidagi imkoniyatlarni berishi bilan ahamiyatga ega:

**birinchiidan,** davlat tomonidan fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish choralarini ko'rish hamda kasbga tayyorlashning zamonaviy tizimini tashkil etish orqali fuqarolarni ish bilan ta'minlash sharoitlari yaratiladi;

**ikkinchiidan,** "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" va "Temir daftar"ga kiritilgan ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha zarur iqtisodiy sharoitlar yaratilishi kafolatlanadi. Xususan, ijtimoiy uylar qurish, aholining turli qatlamlari iqtisodiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda subsidiyalari ajratish kabi;

**uchinchiidan,** tez va shoshilinch tibbiy yordam kafolatlangan hajmining davlat hisobidan ko'rsatilishi belgilanishi tibbiy xizmatning qamrov darajasi va sifatini oshirishga xizmat qiladi;

**to'rtinchiidan,** nogironligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tashkil etilishi natijasida ularning qobiliyati hamda hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatda huquqi hurmat qilinishi prinsipi amalga oshirilishi ta'minlanadi;

**beshinchiidan,** nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga boshqalar bilan teng imkoniyatlar yaratilishi natijasida ularning hayot darajasini oshirishga erishiladi;

**oltinchiidan,** davlat tomonidan iqtidorli va iste'dodli bolalar va yoshlar tizimi qo'llab-quvvatlanishi natijasida ularning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyati yanada ortadi, mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotidagi ishtiroki ta'minlanadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy davlat modeli O'zbekistonda davlat tomonidan quyidagi majburiyatlar bajarilishini taqozo etadi:

**birinchi,** aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda aholi ehtiyojmand qatlamlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishini;

**ikkinchi,** fuqarolarni kasbiy tayyorlashni tashkil etish, mehnat bozorida ehtiyoj mavjud bo'lgan kasblarga fuqarolarni o'qitish va ularning malakasini muntazam ravishda oshirib borish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishini;

**uchinchi,** oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar va moliyaviy resurslar ajratilishi ta'minlanishini;

**to'rtinchi,** ehtiyojmand aholini manzilli qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishini;

**beshinchi,** ijtimoiy tafovutlar kamayishi hisobidan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanishini.

O'zbekistonda fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy huquqlarini ta'minlash borasida so'nggi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim sohasi tubdan isloh etilib, unga yangi va zamonaviy uslublar joriy etildi, maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'limga qamrov darajasi keskin ortdi. Birgina misol: davlatning qo'llab-quvvatlovi natijasida so'nggi olti yilda bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetdi. Bu 2 millionga yaqin bola bog'chaga borayotganini anglatadi.

Shuningdek, aholining uy-joyga ehtiyoji hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashiga ko'mak jiddiy kuchaydi. So'nggi olti yilda qariyb 300 mingta, ya'ni avvalgi yillardagidan 10 barobar ko'p uy-joy qurildi. Birgina 2020-2022-yillarda jami 27 800 fuqaroga boshlang'ich badalning bir qismini qoplash uchun 795,6 milliard so'm va 38 811 fuqaroga foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun 429,4 milliard so'm subsidiya ajratilgani O'zbekistonda ijtimoiy davlat modeli tobora rivojlanib, bu boradagi real imkoniyatlar ortib borayotganidan darakdir.

Bugun O'zbekiston aholisining qariyb 55 foizi yoshlardir. Ularga munosib sharoit yaratish maqsadida davlat tomonidan har yili 250 ming yangi o'quvchi o'rni, kamida 200 mingta yangi uy-joy, 1 million doimiy ish o'rni yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirilayotir.

2023-yil 8-may kuni Prezidentimiz Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda "Yalpi ichki mahsulotimiz hajmini hozirgi 80 milliard dollardan yaqin yillarda 160 milliard dollarga yetkazish uchun bor imkoniyatlarni ishga solishimiz kerak. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 4 ming dollarga yetadi", deya ta'kidladi. Bu og'ir va sharaflari vazifaning samarali bajarilishi kelgusida xalqimiz turmushi yanada farovon bo'lishi, aholining real daromadi bir necha karra ortishiga xizmat qiladi.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonning ijtimoiy davlat modelini tanlashi "inson — jamiyat — davlat" munosabatlari tizimining mukammal ishlashi, jamiyatdagi barcha qatlam vakillari uchun birdek imkoniyatlar yaratilishi, fuqarolarga sifatlari ta'lim, tez va shoshilinch tibbiy xizmat o'z vaqtida ko'rsatilishi, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ehtiyoji bo'lgan fuqarolarga ko'mak ko'rsatilishi, yosh oilalarning uy-joyli bo'lishi uchun imkoniyatlar ortishi, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilishning kafolatlari tizimi joriy etilishi, eng muhimi, hech kim o'z muammosi bilan yolg'iz qolib ketmasligini ta'minlashi shubhasiz.







www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news

# OZIQ-OVQAT YETISHTIRISHNING

**YANGICHA YONDASHUVLAR**

**Shuhrat BOBOMURODOV,**  
Tuproqshunoslik va  
agrokimyoviy tadqiqotlar  
instituti direktori,  
**Nodirjon ABDURAHMONOV,**  
institut direktori o'rinbosari

Sayyoramizda antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan ekologik buzilishlar, iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik va saharlanish jarayonlari kuchayib borayotgani dolzarb muammolardan biri. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasi bundan jiddiy zarar ko'rib, tuproq unumdorligi pasayishiga olib kelayotgani insoniyat oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda.

Tuproqning nuragan tog' jinslaridan farqi uning unumdorligidir. Ana shu unumdor yuzada inson uchun zarur oziq-ovqat mahsulotining 95 foizga yaqini yetishtiriladi.

So'nggi yillarda tabiiy hodisalar oqibatida tuproq eroziyasi, sifati va unumdorligi yo'qotilishi kuchayib bormoqda. BMT tahillilariga ko'ra, bugungi kunda sayyoramizdagi yer resurslarining 40 foizga yaqini tanazzulga uchragan. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligi kun tartibidan tushmay qolgan hozirgi davrda bu jiddiy muammodir. Birgina cho'llanish, yer degradatsiyasi va qurg'oqchilik kabi oqibatlar 100 dan ortiq mamlakatda istiqomat qilayotgan 1 milliarddan ziyod aholi salomatligi va farovonligiga xavf solyapti.

Qishloq xo'jaligi yerlari holatini yaxshilash, tuproqning xossa va xususiyatlarini maqbulashtirish, unumdorligini chegaralovchi omillarni aniqlash, xususan, tuproq resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, sohani raqamlashtirishga yurtimizda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani boisi shunda. Oxirgi yillarda bu borada huquqiy asoslar ham yaratilib, ko'plab farmon va qarorlar qabul qilindi.

Davlat dasturida "Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan edi. Kechiktirib bo'lmaydigan bu qonun loyihasini Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti olimlari Qishloq xo'jaligi vazirligi mutaxassislari bilan birgalikda ishlab chiqdi hamda U Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ma'qullandi. Hozir qonun loyihasi Senatda ko'rib chiqilmoqda.

## Tadqiqotlar natija beryaptimi?

Bir hovuch tuproqqa yetishtirilgan totti ne'matlarini iste'mol qilish oson, albatta. Ammo ular pishib yetilguniga qadar bo'lgan qiyinchiligi mashaqqatni yer bilan tillaungan dehqonlardan so'rash kerak. Chunki tuproq tabiatan "injir" bo'ladi. Uning unumdorligini oshirish, qoqshab yotgan yerda ekin undirish oson emas. Ayniqsa,

## Ekologik oqibatlar tuproq unumdorligiga jiddiy xavf solmoqda



yildan-yilga tuproq sifati o'zgarib, aksariyat joylarda qurg'oqchilik kuchayib borayotgan hozirgi vaqtda buning qiyinchiligi yanada ortmoqda.

Bunday sharoitda sohaga ilm-fan va zamonaviy innovatsiyalarni olib kirish eng to'g'ri yechimdir. Buni yurtimiz qishloq xo'jaligi sohasidagi so'nggi yillarda erishilayotgan yutuqlar misolida ham ko'rish mumkin. Ya'ni olimlarimiz endi kichik tadqiqotlardan tortib, katta loyihalargacha — barini zamonaviy qurilmalar, raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirayotgani o'z natijasini beryapti. Tuproqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas.

Oxirgi yillardagi shunday tadqiqotlarda tuproq sifati baholash ishlariga yangicha yondashilayotgani ko'rinadi. Natijada tadqiqot va tahillilar aniqlik oshib boryapti. Bu muammoni to'g'ri tahlil qilish, samarali yechimlar to'plashga yo'l ochadi. O'rganishlar davomida tuproq degradatsiyasi bilan bog'liq qator yangi holatlar ham aniqlanmoqda.

Yurtimizda turli darajada suv va irrigatsiya eroziyasiga chalingan sug'oriladigan maydonlar 630,3 ming gektar bo'lib, shundan 343,8 ming gektar kuchsi, 208,6 ming gektar o'rta va 78,1 ming gektar kuchli yuvilgan tuproqdan iborat. Sug'oriladigan yerning qariyb 53,2 foizi turli darajada sho'rlangan va shundan 0,9 foizi juda kuchli sho'rlanganlar toifasiga kiradi. Shuningdek, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining 7,6 foizi turli darajada toshloqli, 68,6 foizida tuproq profilning ustki haydalma qatlamida 0,5-1 foiz atrofida gumus mavjud ekani aniqlangan.

Ammo muammoni aniqlashning o'zi kamil qiladi, unga qarshi o'z vaqtda zarur

choralarni qo'llash ham lozim. Shu bois, tuproq degradatsiyasi bilan bog'liq ushbu holatlarni bartaraf etish hamda tuproqni muhofaza qilish va degradatsiyasining oldini olish tadbirlarini tizimli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2022-yil 10-iyundagi "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida yer degradatsiyasi, xususan, tuproqning tanazzulga uchrashi, sifati va unumdorligini yo'qotishiga qarshi kurashish bo'yicha ishlar yanada faollashdi.

Andijon, Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining mintaqaviy bo'linmalari tashkil etildi. Hozir mazkur bo'linmalar tomonidan turli hududlardagi fermer xo'jaliklari va yerdan foydalanuvchilarning sug'oriladigan yerlarida tuproq tadqiqotlari olib borilmoqda.

Ana shunday tadqiqotlarning biri natijasida mahalliy resurslar asosida organomineral o'g'it olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Bu agrotexnologiyani qo'llash bo'yicha dala tajribalari esa Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hamda Qoraqalpog'istonning Xo'jayli tumani fermer xo'jaliklari dalalarida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida ekin turlarining organik o'g'itga talabini qondirish hisobiga g'oz haqosidagi 5-8 sentner, kuzgi bug'doy hosildorligi esa 12-15 sentner oshishiga erishildi.

Paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni yanada oshirish, sug'orishning yangi texnologiyalariga o'tish, zamonaviy laboratoriyalar barpo etish, fermerlarni o'qitish borasida ham ishlar ko'lamini keng. Xususan, 13 ta tuman

paxta maydonlaridagi tuproq holati joyiga chiqqan holda o'rganildi. Har bir tuman, massiv va fermer xo'jaliklaridagi 127 ming 268 gektar paxta maydoni konturbay kesimda monitoring qilindi. Shu asosda tuproq holati, ball boniteti, sho'rlanishi, mexanik tarkibi, zichlashgani, sug'orish me'yorlari, toshloqligi, gipslashgani va boshqa 15 dan ortiq xossa-xususiyati to'g'risida ma'lumotlar jamlandi. Tajriba tariqasida tanlab olingan mazkur tumanlar paxta maydonlari tuproqning agrokimyoviy xossalari asosida o'g'it qo'llash bo'yicha tavsiyanomalar ham tayyorlandi.

Bugunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati amaliy natijalarga asoslangani bilan ahamiyatlidir. Xususan, o'tgan yilning o'zida institut tomonidan Sirdaryo viloyatida 263 ming 740 gektar sug'oriladigan yer maydonida tuproq kartalarini tuzish va tuproq sifati baholash ishlari, 196 ming 886 gektarda agrokimyoviy xaritomalar tuzish va o'g'itlar qo'llashning maqbul muddatlari hamda me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yakunlandi. Yurtimiz hududlaridagi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarida sho'rlangan tuproqlarni xaritagat tushirish va tuproq sho'rlanganlik kartogrammalarini tuzish ishlari esa davom etmoqda.

Fermer xo'jaliklari, agroklasterlar va tomoqaga yer egalari qatnashgan xaritamalar ko'rsatish maqsadida hududlarda "Tuproq klinikasi" mobil laboratoriyalari tashkil etilgani ham muhim yutuqlarimizdan biri.

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani tuprog'ida agrokimyoviy xaritalar asosida tuproq resurslarini kompleks monitoring qilish va boshqarish tizimining axborot ta'minoti, tuproq degradatsiyasini baholash uchun zarur indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tanlab olingan yer maydonlarida esa tuproqning sog'lomlik darajasini baholovchi tuproq ekologik xaritalari tuzildi. Bu kabi loyihalar yurtimiz qishloq xo'jaligi yerlari holatini tahlil qilib borish hamda o'rganish imkonini oshirmoqda.

## Tuproqning o'z "xaritasi" bor

Albatta, bu loyihalar katta mablag' talab etadi. Yillar davomida yurtimizda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmagani, yerdan ilmiy asoslash, o'z boshimchalik bilan foydalanilgani ham loyihalar uchun

mablag' ajratilmaganiga borib taqaladi. Bu esa, mamlakatimizning katta qismidagi yer maydonlari, tuproqning sifati buzilishi, unumdorligi yo'qolishiga olib keldi. Endi ularni tiklash, borini asrab qolgan holda unumdorligini oshirish uchun katta mehnat, ilm va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish talab etiladi.

Bugungi kunda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida umumiy qiymati 7,4 milliard so'mlik 13 ta amaliy va innovatsion loyiha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti. Mazkur amaliy va innovatsion loyihalar yurtimizdagi sug'oriladigan, lalmi tuproqlar va yaylov yerlarni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash, qiyin melioratsiyalanadigan tuproqning xossa-xususiyatlarini yaxshilash, global iqlim o'zgarishi sharoitida tuproqqa kechayotgan degradatsiya jarayonlarining oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Bu borada yangi texnologiyalar ishlab



chiqish, tuproqshunoslik sohasini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, tuproqning ekologik holatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadqiqotlar bajarilyapti.

Ekin dalalarining o'zida organik, makro va mikroelementlarni ko'paytirish, g'ozani o'g'itlashning global iqlim o'zgarishlariga mos nisbatlarini ishlab chiqish, organik dehqonchilikda ekologik sof tuproq sharoiti hosil qilish, lalmikor maydonlarda ekinni almashlab ekish tizimida tuproqqa ishlov bermasdan ekish texnologiyasini ishlab chiqish kabilab ishlar jumlasidan.

Eskicha qurilma va texnologiyalar bo'loyhalarni amalga oshirishga imkon

bermaydi. Sohani raqamlashtirish esa jarayonni tezlashtiradi. Shu bois, hozir sho'rlangan qishloq xo'jaligi yerlari meliorativ holati ma'lumotlarini qayta ishlagga mo'ljallangan mobil ilova, yurtimizdagi gipslashgan sug'oriladigan tuproqning 3D kartalarini, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tuproq resurslarini baholash va monitoring qilish bo'yicha dasturiy mahsulot yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Xususan, tuproq holati, unumdorlik ko'rsatkichlari hamda mazkur ko'rsatkichlarning o'zaro funksional bog'lanishi asosida intellektual modellar ishlab chiqildi. Bunda sun'iy intellekt texnologiyalarida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish uslubidan foydalanilgan.

Buxoro viloyati Buxoro tumani geoxorobot tizimi texnologiyalari yordamida tuproq degradatsiyasini baholash va xaritalash ishlari ham amalga oshirilgan. Loyiha yurtimizning barcha hududlarida davom ettirilib, kelgusida umumiy va yagona xarita yaratish rejalashtirilgan.

Ayni vaqtda qishloq xo'jaligi yerlarining tezkor ma'lumotlari va ularni qayta ishlagga yo'naltirilgan "Sho'rlangan tuproq" mobil ilovasini yaratish bo'yicha ham tadqiqotlar yakunlanmoqda. Shuningdek, institut olimlari mamlakatimizda ilk bor tuproqni xalqaro tuproq kimyoviy tahillari standarti asosida tahlil qilish texnologiyasini yaratish bo'yicha ish

olib boryapti. Tuproq ekologik xaritalarini ishlab chiqish borasidagi tadqiqotlar ham jahon tajribasiga asoslangan bo'lib, sohada yangilik bo'lishi kutilyapti.

Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ana shunday ilmiy tadqiqotlarga talab kun sayin ortib bormoqda. Bu barcha sohalardagi rivojlanish tendensiyalari bilan ham bog'liq. Asosiy, har bir tadqiqot muayyan muammo yechimiga xizmat qilib, yangi loyihalarga yo'l ochib boraveradi. Tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish esa nafaqat bugun, balki kelajak avlod farovonligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

## TARAQQIYOT MEZONLARI



**Gulruh NIYOZMETOVA,**  
Kambag'allikni qisqartirish  
va bandlik vazirligi  
davlat mehnat inspeksiyasi  
boshlig'i o'rinbosari

To'qimachilik sanoati O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy rivoji, balki jahon bozorida o'rinni belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Uzoq yillar davomida dunyo bozoriga faqat paxta xomashyosi sotib kelgan mamlakatimiz bugun paxtani qayta ishlayotgan to'liq zanjirini yaratdi. "Made in Uzbekistan" brendi ostidagi tayyor to'qimachilik mahsulotlari ko'plab davlatlarga kirib boryapti. Ayniqsa, o'zbek paxtasiga qo'yilgan taqiyning 2022-yilda bekor qilinishi milliy to'qimachilik sanoatimizda yangi davrni boshlab berdi va tomoqaga jahonning mashhur brendlari katta qiziqish bildirmoqda.

O'tgan hafta poytaxtimizda bo'lib o'tgan "UzTextile Expo Spring — 2023" to'qimachilik haftaligida bunga yana bir karra guvoh bo'ldik. Haftalik doirasida o'tkazilgan yirik forum va tadbirlarda 160 dan ortiq xorijiy kompaniya vakillari ishtirok etib, mahsulotlarini namoyish etish barobarida milliy to'qimachilik

# O'ZBEKISTON "BETTER WORK" XALQARO DASTURIGA QO'SHILDI

## Bu milliy to'qimachilik sanoatiga nima beradi?

bozirimiz bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Keng muloqot maydonida erishilgan hamkorlik kelishuvlari, imzolangan yirik bitimlar ko'lami esa avvalgi yillardagidan ancha yuqori. Yurtimiz va xorijning mas'ul tashkilotlari o'rtasida imzolangan 2023-2024-yillarda Barqaror rivojlanish bo'yicha hamkorlikdagi tadbirlar rejasini, ya'ni "yo'l xaritasi" shular jumlasidan.

To'qimachilik haftaligi yana bir yirik memorandum — O'zbekistonning rasman "Better Work" dasturiga qo'shilishiga kelir hujjat imzolashiga ham yo'l ochdi. Kelishuvlar asosida mazkur dasturni yurtimizda tatbiq etish bo'yicha loyihaga start berildi. Endilikda O'zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro moliya korporatsiyasining tikuv-to'qimachilik sanoatida munosib mehnat standartlari va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan "Better Work" qo'shma dasturining rasmiy a'zosi sifatida jahon brendlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ushbu dastur dunyo to'qimachilik sanoatida o'z o'rini va nufuziga ega. U davlatni mashhur brend va kompaniyalar uchun yuqori sifati to'qimachilik mahsulotlarining barqaror va mas'uliyatli ishlab chiqaruvchisi sifatida qabul qilinishi kafolati hisoblanadi. Birgina misol, joriy yil 25-martda mashhur "Disney" brendi O'zbekistonni ham o'z ichiga olgan mahsulot yetkazib beruvchi mamlakatlar ro'yxatini e'lon qildi. Ammo bunda mamlakatda



"Better Work"ning faoliyat yuritishi asosiy talab sifatida ko'rsatilgan.

Xo'sh, xalqaro dastur unga a'zo mamlakatlar oldiga qanday talablar qo'yadi? Mazkur talablar bir qancha bo'lib, avvalo, shu sohada mehnat qilayotgan har bir ishchining mehnat huquqlarini ta'minlash loyihasining bosh mezonidir.

Bu uning nomidan ham ma'lum. Ya'ni "Better Work" inglizchadan tarjima qilinganda "munosib mehnat" ma'nosini anglatadi. Tikuv-to'qimachilik korxonalaridagi mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda ishchilarning mehnat huquqlarini ta'minlash, korxonalarining

raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishga ko'maklashish kabilab dasturning asosiy maqsad-vazifalari qatoridan joy olgan. Shu maqsadda dastur doirasida korxonalar, ayniqsa, ayollar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodim va boshqaruv tizimi o'rtasida muloqotni o'rnatish, samarali boshqaruv tizimlari, kadrlar malakasini oshirish, asosiy milliy mehnat standartlari va Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga rioya qilish bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda.

Ayni paytda xalqaro loyiha a'zolari qatoriga Bangladesh, Vetnam, Gaiti, Misr, Indoneziya kabi davlatlar kiradi. Dasturning

## BetterWork

umumiy qamrovi 2,4 milliarddan ortiq kishi ishlaydigan 1,7 ming fabrikani o'z ichiga oladi. Ushbu tashabbusning hamkorlari esa to'qimachilik, trikotaj va tikuvchilik sohasidagi yirik va xalqaro miqyosda tan olingan 40 dan ortiq kompaniyadan iborat. Bunga misol tariqasida H&M, S&A, Levi's, GAP kabi yirik brendlar nomini keltirish mumkin.

Xalqaro mehnat tashkilotining "Better Work" dasturiga qo'shilishning o'z talablari bor. Talabgor davlat 10 ta mezon asosida baholalanib, so'ng a'zolikka qabul qilish bo'yicha xulosa beriladi. Mezonlar qat'i va xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, ular orasida sohada mehnat standartlariga muvofiqlik bilan bog'liq muammolar mavjudligi, mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlik, xalqaro xaridorlarning ushbu yetkazib beruvchi mamlakatga bo'lgan qiziqishi, dasturning moliyaviy va institutsional barqarorligi uchun imkoniyatlar mavjudligi, sanoat imkoniyatlarini kabi jihatlari jiddiy e'tiborga olinadi.

O'zbekiston dasturga qo'shilish uchun qator majburiyatlari, xususan, tovon puli to'lash, shartnomalar tuzish shartlari, mehnatni muhofaza qilish, xodimlarning sog'lig'i va ish vaqti, kasaba uyushmalari faoliyati erkinligini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.





# KUCHLI TA'LIM TIZIMI

## Finlyandiya tajribasida qanday namoyon bo'lmoqda?



**Odil QO'YSINOV,**  
Xalqaro Nordik universiteti  
prorektori,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor

Boshlanishi 1-betda

Yurtimiz ta'lim muassasalari mas'ullari oldida turgan shu kabi muhim savollarga Finlyandiya ta'lim tizimi va uning faoliyat tamoyillarini bevosita o'rganish va tadqiq etish jarayonida javoblar topdik. Joriy yil 24-apreldan 7-mayga qadar yurtimizdagi 10 ta pedagogik oliy ta'lim muassasasining 25 nafar rahbar xodimi va professor-o'qituvchilari ishtirokidagi delegatsiya Finlyandiya bo'ldi. Shu asnodan ta'lim tizimini atroflicha o'rgandik. Zero, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining xorijiy davlatlarda malakasini oshirish ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuv va innovatsiyalarni tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Finlyandiya davlati muvaffaqiyatining asosiy sabablari o'qituvchilar salohiyati, ta'lim siyosati va fin madaniyati uyg'unligiga bog'liq. Safar chog'ida markaziy va mahalliy boshqaruv muvozanati, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga katta mas'uliyat bilan yondashuv e'tiborimizni tortdi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Xalqaro Nordik universiteti, Finlyandiyaning Xelsinki, Kareliya, Yuvaskula va JAMK amaliy fanlar hamda pedagogika institutlari hamkorligida malaka oshirish kursi tashkil etildi.

### Yuvaskula — Finlyandiya ta'limi beshigi

Malaka oshirish darslari Finlyandiyaning turli shaharlaridagi ta'lim muassasalarida bo'lib o'tdi. Yuvaskula universiteti qoshidagi Ilmiy izlanish markazi professori Juhani Rautopuro tomonidan xalqaro baholash tizimi (PISA,

qaratilgan. Ilmiy izlanish butun ta'lim tizimi (maktabgacha ta'limdan to'liq ta'limgacha, akademik va kasb-hunar ta'limi va kasb tanlashgacha davrlar)ni o'z ichiga oladi. 1970-yillarda Finlyandiya ta'limida tub islohotlar olib borilib, nazorat tizimidan liberal tizimga o'tilgan. Finlyandiya ta'lim tizimining asosiy tushunchalari — tenglik, kompetensiya, mutaxassisga ishonch, maxsus ta'lim. Finlyandiya ta'limining kuchli jihati maktab tizimi hisoblanadi. Maktablarni tekshirish va standartlashgan testlar mavjud emas. Maktablar o'zaro raqobatga kirishmaydi. Ya'ni ishonch madaniyati tufayli maktablar tekshiruv tashriflaridan xoli. Finlyandiya eng yaxshi maktab uyga yaqin maktabdir. Bu mamlakatdagi barcha maktablarning deyarli bir xil sifatda tashkil qilingani va o'qitishning hamma joyda yuqori saviyada tashkil etilishidan darak beradi.

Bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tengligini ta'minlash asosiy o'rinda. Tenglik, ishonch, o'qituvchilar salohiyati, ixtiyoriylik, individuallik, mustaqillik hamda amaliylik kabi asosiy tamoyillar, ta'lim oluvchilarning har qanday fikri inobatga olinishi va qo'llab-quvvatlanishi O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish mumkin bo'lgan jihatlardir.

Finlyandiya pedagogik nufuzli kasb bo'lgani sabab professor-o'qituvchilarning ta'limi va malaka oshirishiga katta e'tibor qaratilgan. Maktabgacha, maktab va oliy ta'limdagi islohotlar asoschisi ham o'qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish, qo'shimchalar kiritish yoki tubdan o'zgartirish huquqiga ega. Finlyandiya ta'lim tizimiga milliy dastur ko'rsatma sifatida beriladi. Mazmun-mohiyatini boyitish, o'zgartirishlar kiritish, mavzulashtirish professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Dunyo mamlakatlari



izlanish olib borish uchun barcha shart-sharoit mavjud: elektron kutubxona, kompyuterda ishlash zallari, oshxona. Kutubxona qoshida ilmiy hamda ta'limiy xizmatlar markazi faoliyat yuritadi. Ushbu markazlar ilmiy izlanuvchilarga xizmat ko'rsatadi, xususan, maqolalarini chop qilish bilan bog'liq texnik xizmatlarni taklif qiladi.

Kutubxona ochiqlik siyosatini ilgari suradi va universitetda barcha ilmiy ishlar platformaga joylashtirilgan hamda undan foydalanish barcha uchun ochiqdir. Kutubxona foydalanuvchisi dastlab 12 soatlik treningda ishtirok etishi lozim. Treningda kutubxonaga a'zo bo'lish, ishlash, savolnoma va yor'iqnomalar tuzish o'rgatiladi.

Markazda maqolalarini nashriyotlarda chop etish uchun maxsus shtat birligi ham

platforma orqali hujjat topshiradi. Maktab ma'muriyati ularni ko'rib chiqib, o'ziga kerakli xodimni tanlaydi va suhbatga taklif etadi. Ishga olingan o'qituvchi to'liq mustaqil ravishda ishchi dastur ustida bosh qotiradi va materiallarni o'zi tanlash huquqiga ega. E'tiborlisi shuki, pedagoglar hamkorlikda ishlab, muhokama yakunida eng yaxshi natijaga erishadi. Maktabda har 125 nafar o'quvchi alohida bo'linmalarga ajratilgan, moddiy-texnik baza tashkil qilingan holda o'qitiladi. Sifatli ta'lim olish uchun zarur barcha sharoit yaratilgan. O'quv va maxsus xonalar zamonaviy jihozlilar bilan to'liq ta'minlangan. Masalan, musiqa xonasida turli cholg'ular mavjud. Texnologiya xonalari jami 8 ta ustaxonadan iborat alohida qismda joylashgan. Ustaxonalar sopolga, yog'ochga va metallga ishlov berish, savatchilik, tikuvchilik va oshpazlik, robototexnika va qurilish-konstruksiyalash bo'yicha kerakli jihoz va xomashyo bilan ta'minlangan. O'quvchilar birlashtirilgan ustalar yordamida juda chiroqli buyumlarni tayyorlash bilan mashg'ul.

### Tadbirkorlikka ixtisoslashtirilgan maktab

Maktab bitiruvchilarini mustaqil hayotga tayyorlash va ularda tadbirkorlikka qiziqish uyg'otish maqsadida Muurame pilot maktabi yaratilgan bo'lib, uning asoschilari — Yuvaskula shahrining tadbirkorlari. Bu yerda ishlab chiqarish bilan maktab orasida hamkorlik mavjud. Maktab bitiruvchilari qiziqarli loyihalar va tadbirkorlik tashabbuslari ustida ishlashadi. Maktabning bitiruvchisi bilan suhbatda bo'ldik. O'quvchi fikr-mulohazalarini biz bilan o'rtoqlashdi. Unga bu integratsiya ma'qul kelgani va kelgusida qaysi universitetda o'qishi, qaysi kompaniyada ishlashini ma'lum qildi.

Tadbirkorlik maktabida hamma bilimlar bevosita amaliyotda o'rganilishi va mas'uliyatli o'quvchilar tarbiyalanishining guvohi bo'ldik. O'quvchilar amalga oshirayotgan loyihalar mahalliy kompaniya yoki tadbirkorlar tomonidan moliyalashtirib boriladi.

### Savodxonlik bo'yicha eng yaxshi o'qituvchilar

Yuvaskula universiteti fakultetlaridan biri aynan pedagoglarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan. Ishlar "Donolik va

barqarorlik hamma uchun" shiori ostida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti (bog'cha)larida ishlash uchun bakalavr darajasi yetarli. Maktabda o'qituvchi bo'lib ishlash uchun talabgor Pedagogika universitetining magistratura bo'limini ham tugatgan bo'lishi shart. Fan o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun esa bir yil (60 kredit) qo'shimcha ta'lim olish kerak. Pedagoglardan nafaqat yo'nalishi bo'yicha mutaxassis bo'lish, balki yuqori malakali o'qituvchi bo'lib yetishish ham talab etiladi.

Masala shundaki, o'qituvchilar nafaqat joriy yilda, balki 40 yildan keyin ham o'z bilim va ko'nikmalarini yo'qotmagan, doimiy o'z ustida ishlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasini oldiga qo'ygani. Bu fakultet jamoasidan bo'lajak o'qituvchi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini avvaldan bilish, ularni amalda qo'llashni biladigan kadrlar yetishtirishni talab etadi. Shuning uchun ular bu sohada doimiy ravishda izlanish olib boradi va ishchi dasturlarini tez-tez takomillashtirishadi. Yuvaskula universiteti jamoasining ishlash madaniyati ochiqlik, ishonch, sifat, integratsiya va haqg'o'ylikka asoslangan. Universitetda 3 ta qoidaga amal qilinadi: ilmiy izlanish, sifatli ta'lim, jamiyat ta'siri.

Taqdimot jarayonida fakultet strategiyasi bilan ham tanishdik. E'tiborlisi, strategiya va ishchi dasturi milliy dasturga asoslanib tuzilgan. Finlyandiya ta'lim darajasi yuqoriligidan sababi abituriyentlarni pedagoglikka qabul qilish jarayonining o'zida bir necha bosqichli jiddiy saralash o'tkaziladi. Masalan, 2022-yili 1750 nafar abituriyentdan 89 nafarigina qabul qilingan. Pedagogik ta'lim yo'nalishlariga umumiy test natijalariga ko'ra, yuqori ball olganlar to'g'ridan-to'g'ri suhbatga kiradi yoki kam ball olganlardan maxsus imtihondan o'tish talab qilinadi. Suhbat jarayonida 5 bosqichli qisqa savol-javoblar tashkil etiladi. O'qituvchilikka qabul qilishda nomzodning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlariga muhim omil sifatida qaraladi. Talabgor magistraturani tugatgach, undan pedagog bo'lish huquqini olib tashlab bo'lmaydi. Shuning uchun qabul jarayoni mukammal yondashuv bilan amalga oshiriladi. O'qituvchi ish jarayonida qo'pol xatolik, qoidabuzarlikka yo'l qo'ysa, magistrlik diplomi bo'lgan taqdirda ham pedagoglik qilish huquqidan mahrum etiladi. Finlyandiya qabul qilingan milliy dastur bu shunchaki ko'rsatma bo'lib, rasmiy majburiyat yuklamaydi. Har bir o'qituvchi

qaysi metodlardan foydalanishni o'zi tanlaydi. O'qituvchilar malakasini oshirish majburiy bo'lib, bir yilda 3 kunni tashkil etadi.

Bu mamlakatda ta'lim turlari bo'yicha o'qituvchilarning birga ishlashi natijasida o'qitish turlariro uzviylik ta'minlangan. Bir ta'lim turidan keyingisiga o'tishda o'qituvchilar har bir bola haqida alohida ma'lumotlar almashadi. Aynan bola tug'ilgandan boshlab monitoring tizimi mavjudligi sabab o'g'il-qizlarning akademik va ijtimoiy holati muntazam o'rganiladi hamda nuqsonlari bo'lsa, erta aniqlash tizimi ishga tushadi.

### Valteri — ta'lim va konsalting markazi

Valteri Finlyandiya milliy ta'lim agentligi qoshida faoliyat yurituvchi milliy ta'lim va konsalting markazidir. Valteri mamlakat bo'yab bolalar va yoshlarning o'qishi hamda maktabda tahsil olish uchun har tomonlama professional yordam beradi. Ushbu markaz faoliyati aqliy hamda jismoniy nuqsoni bor, individual ko'makka muhtoj har bir yoshning, ayrim hollarda butun mehnat jamoasi, tuman yoki viloyat hokimliklarining ehtiyojiga qaratilgan.

Malaka oshirish kursi davomida mazkur markazning ngironligi bo'lgan bolalar va yoshlarga o'z mahallasidagi maktabda ta'lim olish imkonini berishga qaratilgan faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Markaz xodimlari nuqsoni bo'lgan, ko'makka ehtiyojmand bolalarni ertaroq aniqlash va ularga turli soha vakillari bilan birgalikda yordam berishga harakat qilmoqda. Finlyandiyaning turli hududida 5 ta Valteri maktabi faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, 3 ta Valteri ta'lim va konsalting (maslahatlashuv) markazi ham mavjud.

### Amaliy fanlarga ixtisoslashgan oliyog'oh

Stajirovkaning ikkinchi haftasida Yoensu shahrida joylashgan Kareliya amaliy fanlar universitetida bo'ldik. Universitet 1992-yilda faoliyat boshlagan bo'lib, ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayoni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning kasbda talabini e'tiborga olgan holda tashkil etiladi. Asosan, bugun iqtisodiyotga zarur bo'lgan kasblar bo'yicha xalqaro biznes, biotexnologiya, industrial menejment, informatsion texnologiya, hamshiralik, o'rmonchilik va o'rmonni boshqarish, fizioterapiya, gerantologiya kabi mutaxassislar tayyorlanishi haqida ma'lumot olindi. Muassasada ta'lim jarayoni uchun maxsus elektron platforma yaratilgan bo'lib, undan talaba va o'qituvchilar o'ziga kerakli ma'lumotlar, dars jadvallari, tanlov fanlari hamda darsga qatnashish vaqti kabi ma'lumotlarni olishi mumkin.

Universitetda kadrlar tayyorlash jarayonini yaxshilash uchun 500 dan ortiq korxonaga bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, shartnoma asosida talabalar korxonaga va tashkilotlarda mehnat faoliyatini olib borishi, malakaviy amaliyot o'tashi, amaliyotchi pedagoglar tomonidan olib boriladigan darslarda ishtirok etishi mumkin. Bu talabalarga ishlab chiqarishga oson moslashib ketish imkonini beradi.

Hamshiralik ishi fanidan amaliy mashg'ulot xonasida barcha sharoitlar, jumladan, mulyajlar, turli fiziologik ko'rsatkichlarni aniqlaydigan elektron uskunalar, monitorlar hamda shifoxona tajriba palatalari maketi o'rnatilgan bo'lib, bunda bo'lajak hamshiralar barcha jarayonni modellashtirilgan hayotiy jarayonlarga yaqin holatda o'rganib borish imkoniga ega bo'ladi. Safar davomida Kareliya amaliy fanlar universiteti bilan yurtimiz OTMLari o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Xelsinki shahrida Finlyandiya ta'lim vazirligi mas'ullari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot davomida mamlakatimiz va Finlyandiya o'rtasida ta'limi rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Malaka oshirish jarayonida Finlyandiyaning ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlardagi muvaffaqiyati sirlari bilan tanishdik. Fin o'qituvchilarining PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijaga erishishi sabablari borasida ham xulosalar oldik. Ta'lim delegatsiyasi a'zolari eng qisqa o'quv va shunga qaramay eng yuqori ko'rsatkichlarga erishayotgan Finlyandiya ta'lim tizimi afzalliklarini o'z tajribasida qo'llashga kirishdi.

66

**FINLYANDIYA DAVLATI MUVAFFAQIYATINING ASOSIY SABABLARI O'QITUVCHILAR SALOHİYATI, TA'LIM SIYOSATI VA FIN MADANIYATI UYG'UNLIGIGA BOG'LIQ. SAFAR CHOG'IDA MARKAZIY VA MAHALLIY BOSHQARUV MUVOZANATI, O'QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHGA KATTA MAS'ULIYAT BILAN YONDASHUV E'TIBORIMIZNI TORTDI.**

IAAC, TALIC, KAPPAS, TIMSS, PIRLS, ICCS, ICILLS kabilar) xususida mazmunli ma'ruzalar qilindi. Ta'lim tizimidagi yutuqlar, natijalar, kompetensiyalar, baholash mezonlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishdik. Professorning aynan O'zbekistondagi xalqaro baholash bo'yicha jarayonlardan xabardorligi hamda qiyosiy tahlillari e'tiborimizni tortdi.

Ushbu institutning maqsadi baholash, fin ta'lim tizimi hamda maktab madaniyatini rivojlantirishga

universitetlari reytingining 500 taligiga kirgan Yuvaskula universitetida pedagog kadrlar tayyorlanadi va malakasi oshiriladi. Ishchi va fan dasturlari mazkur universitet professor-o'qituvchilari tomonidan mustaqil tuziladi. Professor-o'qituvchilar mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Yangi yo'nalish yoki fakultet ochish uchun Ta'lim vazirligiga murojaat qilinadi.

Yuvaskula universiteti kutubxonasida 70 nafar xodim faoliyat ko'rsatadi. E'tiborlisi, kutubxonaning o'zida ilmiy

### Onlayn platforma orqali tanov

Safar davomida "Makelanmayen Koulu" boshlang'ich ta'lim maktabi tajribasi bilan tanishdik. Muassasada har bir bolaga alohida e'tibor berilayotgani, ayniqsa, maxsus ta'limga muhtoj bolalarning barchaga qo'shib o'qitilishi, ya'ni inklyuziv ta'lim ularning kelajakda jamiyatda o'z o'rinlarini topib ketishiga zamin yaratadi.

Maktabda o'qituvchini ishga qabul qilish jarayoni e'tiborimizni tortdi. O'qituvchilikka nomzodlar onlayn





So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin!

Abdulla QODIRIY



Bahodir KARIM, filologiya fanlari doktori, professor

Jadid ziyollari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o'zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o'rinda foydalanish naqadar muhim bo'lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiyosi ham shu darajada ahamiyatli edi.

"Haqiqat ochib so'zlashdadir" tamoyiliga asoslangan jadid matbuotidagi haq so'zning, haqiqat siyoqining kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta'siri kuchli bo'ldi.

Haqiqat ochib so'zlashdadir tamoyiliga asoslangan jadid matbuotidagi haq so'zning, haqiqat siyoqining kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta'siri kuchli bo'ldi.

Darvoqe, yaxshi bilasizki, "Pravda" ning tarjimai si "Haqiqat" dir. 1922-yili jadidlar "Haqiqat" degan jurnal ham chiqarishdi. "Dinsiz jamiyat, jamiyatsiz din yo'qdir..." ularning shiori edi.

Turkistonlik ziyolilar o'zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga — Boqchasaroyga ko'z tikishdi.

Turkistonlik ziyolilar o'zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga — Boqchasaroyga ko'z tikishdi. Ismoilbek Gasprinskiyning "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan g'oyalarga havaslanib qarashdi.

Jadidlar shu a'loning "Tarjimon" (1883-1914) gazetasini o'qib, uning muxlisi va muhobiga aylinishdi. Gazeta til va fikr birligi masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Abdulloh Muhammadovning "Shuhrat" (1907-yil dekabr) gazetalarida muayyad mavzularni muhaddis Foyzrahmat (Buxoro) kabilar qatnashadi.

Mualliflar ba'zan maqola-xabar yozishsa, ayrim hollarda "Tarjimon"dan o'zlarining eng muhim savollariga javob olish niyatida maktablar yo'llaydi.

ODAMLAR ONG-U SHUURINING QUYOSHI, VIJDON OVOZI BO'LISHNI ORZULAGAN EDI

O'z zamonida vaqti matbuot insoniyat uchun oyina vazifasini o'tadi. Har kim unda o'zini, har millat qiyofasini, zamona esa suvratini ko'rdi. Gazeta va jurnallar suvratdan siyratga yuz burdi, ijod ahlining qalb sadolari vaqti matbuotda vaqti-vaqti bilan jaranglab turdi.



"Matbuotimizda taassuf bo'lgan bir hol-da bordir: bu Toshkentda chiqqan "Taraqqiy" va "Xurshid" do'stlarimizning taqilqanishi. O'rta Osiyo uchun rasmiy bo'lgan "Turkiston gazetasi" yetarli emas.

Ziyo Said jurnalning maqsadli ism millatining saodati va islohi, musulonlarning madaniyati va zamonaviy fanlardan

ba'zilar ham bo'lsa ham, ular oldiga qo'yan maqsadlari nihoyatda ulug', niyatlari ezuq, qarashlar aniq va tiniq edi. Millatni uyg'otishdek ulkan vazifa ijrosiga bel bog'lagan edi jadidlar va ularning maktabi, maorifi, teatri, adabiyoti va matbuoti.

Inqilob, hokimiyat tepasiga kelgan ishchi va dehqonlar boshqaruvi jamiyatni tubdan o'zgartirdi. Yoshlar nisbatan bu vaziyatga tez moslashdi. Ammo yurt hurriyatini o'yagan va orzulari sarobga aylanganidan mahzun turgan jadid ziyollari ong-u shuurida, xayollarida o'z niyatlari yashab qoldi.

Uning muallifi: "Eski idora yerlik xalqni yot ko'rish barobarida sag'ir hisoblab, vasiylik qilishni o'z ustiga olgan edi. Ajal sayyodi u bechoraga o'z jomidan ajal sharbatini ichirdi.

Sag'ir bolalarning ishi yig'irdir; biz yig'irladik. A, bizni ovtitish yo'lini bergan vasiylarimiz, bizni haqimiz bo'lg'on semiz sigirlarning sutidan bahrasiz qildi, quruq emizukni og'zimizga soldilar.

Fikrini erkin bayon qilgan bu davr matbuoti keyinroq keladigan hibslar, so'z erkinligi bo'g'lgan muhitdan nisbatan farq qiladi. Jadid ziyollari sho'rolarning matbuot nashrlarida ishlar ekan, yangi hukumatning va'dalariga goh ishonadi va ba'zan shubhaga borishdi.

"Ey! Sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandil! Ey! Ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan, Ey! Bo'ynimga kishan solib, halokatga sudragan, Ko'zlarining zaharlatib o'ynatmagil, bas endil!"

"Kecha va kunduz" romanida botiniy shuur Miroqub obraziga ko'chdi. Cho'lpon keyinchalik aynan shu, nisbatan so'z erkinligi muhitida aytilgan jadidona kayfiyatli, o'tli xitoblari uchun tafakkur qurbonlari qatligohida jonini berdi.

XX asrning 20-yillari oxiriga borib, matbuotda cho'lponizm bahslari boshlandi, Cho'lponni tanqid va talqin qilishlar, anjumanlar majlislaridan haydab chiqarish jarayonlari avd oldi.

"Matbuot kuni" maqolasida yuziga "Pravda" pardasini tutishga majbur bo'ldi. "Pravda" gazetasi — "gala bo'firilar ichida yolg'u arslon edi", deb ta'rifladi.

"Matbuot kuni" maqolasida yuziga "Pravda" pardasini tutishga majbur bo'ldi. "Pravda" gazetasi — "gala bo'firilar ichida yolg'u arslon edi", deb ta'rifladi.

ma'noni shu arslon bobodan olamiz. Biz teskarilikning, kapitalning, egiriklikning dushmanidirmiz. Negaki, bobomiz shunday edi.

Darvoqe, yaxshi bilasizki, "Pravda" ning tarjimai si — "Haqiqat" dir. 1922-yili jadidlar "Haqiqat" degan jurnal ham chiqarishdi.

Alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek adabiy tiling yangicha shakllanishida vaqti matbuot juda katta tarixiy missiyani bajardi.

Shuningdek, asr avvalida boshlangan ma'rifatparvar ziyollarning jadidona kayfiyati, matbuotda chiqishlaridagi jadidona ruhiyatni mustabid shu'ro tuzumi davrida ham ming mashaqqat bilan, "ezopona til" ga ko'chgan ravishda qaysidir ma'noda davom etganini ham ta'kidlashni istar edik...

Aslida, jadidlar orzusida bo'lgan so'z erkinligi, har bir narsani o'z nomi bilan atash uchun Istiqlo' yillari imkon berdi. Samarqandda bitta gazeta XX asrning 20-yillarida "Mehnatkashlar tovushi", "Kambag'allar tovushi", keyin "Zarafshon" deb nomlandi.

Tarixdan ibrat olish har bir inson uchun juda muhim. Jumladan, o'zbek matbuotining jadidlar faoliyati bilan bog'liq ancha qiziqarli, murakkab va ibratlarga to'la tarix bor.

Yana bir muhim gap: gazeta va jurnallarda bosilgan rasmlarni, suvratchilar faoliyatini tadqiq etish ham alohida masala. Rasmga tushish va tushirish madaniyati — bugun bu jihat juda ham oqsagan.

Kim qayerda, qay yo'sinda, deylik yana, qaysi tarfaga moyil yoki kim kimning yonida turishi kerak kabi tartiblar xususida ham o'zbek milliy matbuoti tarixidan saboq olmoq lozim.

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DUK

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646. 41011 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:15